PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

O’ZBEK MUSIQA MEROSI VA MUSIQIY NAZARIYANING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Rasulova Sevara
Guliston davlat universiteti
stajyor o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23279209

Annotatsiya: Ushbu maqoladaO’zbek xalqining musiqa merosi, an’analari, yuksak madaniyati, xalq ijodi hamda kuy tuzilishining amaliy va nazariy jihatdan rivojlanish bosqichlariga to’htalib o’tilgan. Maolada keltirilgan ma’lumotlar musiqashunos olimlar, yetuk bastakorlarning nazariy bilimlari va ustoz san’atkorlarning musiqa nazariyasiga doir fikr mulohazalaridan jamlandi.
Ka’lit so’zlar:O’zbekmusiqasi, urf – odat, marosim, san’at, musiqashunoslik, bastakorlik, milliy – mahalliy uslublar, madaniy meros

Annotation: This article focuses on the stages of practical and theoretical development of the musical heritage, traditions, high culture, folk art and melody structure of the Uzbek people. The information in the article is based on the theoretical knowledge of musicologists, leading composers, and the views of master artists on music theory.
Keywords: Uzbek music, traditions, ceremonies, art, musicology, composition, national and local styles, cultural heritage.

O’zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an’analari hozirgi kunda ham o’z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an’analar zamonaviy o’zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi. Qadim – qadim zamonlardan ona – zaminimiz o’zining boy ma’naviy merosi, yuksak madaniyati, urf – odat, marosim va an’analari bilan jahon tsivilizatsiyasida munosib o’rin egallagan. Bu o’lka xalqlarining buyuk siymolari duny ilm – fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga o’zlarining munosib xissalarini qo’shib kelganlar.O’zbek xalqining o’z ildizlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi bizning hozirgi kunlarimizda ham yangramokda. U o’zining xalq ijodi hamda kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan ashula va cholg’u asarlari – dostonlar va maqom musiqasini birlashtiradi. Musiqa- ohang (intonatsiya) san’ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o‘ziga xos tarzda aks etib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o‘zgartirishda yordam beradi.

O‘zbek mumtoz musiqasining zarhal sahifalarini varaqlar ekanmiz, undagi bor nozik jihatlarini ehtirof etmasdan iloji yo‘q. Chunki bu jihatlami ilmiy o‘rganish, tahlil etish va yakuniy xulosalar chiqarish har bir tadqiqotchi olimning dolzarb vazifalaridan biridir. O’zbek musiqasining paydo bo’lishi, rivojlanish bosqichlari, ijro usullari va O’zbek musiqasining paydo bo’lishi, rivojlanishida o’z hissasini qo’shgan olimlar, musiqashunos, bastakorlar, ularaing ma’anaviy hayotdagi o‘mi haqida Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Marog‘iy, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida batafsil to‘xtalganlar. Bu an’ana xonliklar davrida ham, XIX asrlarda

ham davom ettirilgan. XX asming 30 yillariga kelib esa, yàngicha, zamonaviy talablar doirasida, Yevropa usuliga suyangan holda maqomlar tadqiq va tahlil etila boshlandi.O'zbek musiqa san'atining tarixiy ildizlari uzoq moziydan boshlanadi.Uni chuqur o'rganish esa mashaqqatli mehnat, izchil izlanishlarni talab qiladi.Bu sohada respublikamizning talaygina ilmiy tadqiqot maskanlarida, o'quv yurtlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbek musiqasi" iborasi keng mazmunli tushuncha bo'lib, u, jumladan, o'z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamining – xalq musiqasi va ustoz – san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqa sohalarini hamda bastakorlik va kompazitorlik kabi zamonaviy musiqa ijodiyoti tarmoqlarining qamrab oladi. Surxondaryo- Qashqadaryo,Buxoro – Samarqand Xorazm musiqa uslubi.Farg'ona – Toshkentkabi musiqa uslublari mavjud bo'lib, har bir mahalliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'analariga ega. Buan'analar esa uzoq vaqtlar moboynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharaoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, turfa marosimlari, urf-odat bayramlari va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog'lanib ketadi. O'zbek halq musiqasining ko'hna, nihoyatda boy va serjilo an'analari avvalo uning turfa yarim – mahalliy uslublarida yorqiin va teran o'z ifodasini topadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada.Bu o'rinda ayniqsa katta ashula "milliy - mahalliy" jarayonga yorqin namuna bo'la oladi.O'zbek milliy cholg'ularidan esa dutor, tanbur, sato, g'ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora, doira, (childirma), chirmanda kabilar juda ko'p qo'llanib kelingan.Musiqa asarlarini tashkil etadigan elementlarning eng kichik birligi ayrim musiqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda "nag'ma" iborasi bilan atalgan. O'zining baland-pastligi bilan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma'lum vaqtgacha cho'zilib turadigan tovush "nag'ma" deb ataladi.

Musiqaga oid nazariy risolalardan «nag'ma» musiqaga bog'liq bo'lmagan boshqa xil tovushlardan keskin farq qiladi. Ular ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi.Masalan, insonning qo'pol ovozi, sozlanmagan cholg'ularning ovozi nag'ma sanalmaydi.[1]

Musiqada nag'ma ikki xil bo'ladi:

- Nag'mai qavliy - ya'ni inson tovushi;
- Nag'mai fe'liy - musiqa asboblaridan chiqadigan sun'iy ovoz.

Baland-pastligi jihatidan turlicha bo'lgan ikki xil nag'madan "bo'd" hosil bo'ladi. Bo'd ikki nag'ma birikmasi va ikki tovush oralig'ida paydo bo'ladigan interval ma'nosini beradi[2]. Shunday qilib, sharq musiqa nazariyasida hozirda unchalik qo'llanilmayotgan turli iboralar mavjuddir.Shunday qilib, saroy va shahar doirasida ommalashgan boy, rivojlangan musiqa san'ati - professionallashdi, xalq musiqa zaminida o'sdi va rivojlandi, ijod etishning qat'iy qoidalari esa xalq musiqa amaliyotining qo'shimcha ijodiy qayta ishlashi natijasi bo'ldi.

Mus'iqa boshqa san'at turlari bilan yaqin munosabatlarda bo'ishi shubhasizdir.

Ularning jonli aloqalari musiqaga hos intonatsion asosi adabiyot bilan yaqinligi,

ritmik uyushqoqligi she'riyat va raqs san'atiga o'xshashligi, asarlarining mutanosib tuzilishi arxitektura shakllariga muvofiqligida ko'rinadi. Bunga qo'shib aytish lozimki, adabiyot, tasviriy san'at, xaykaltaroshlik asarlari ko'pincha musiqiy asarlar uchun asos sifatida hizmat qiladi.

[1]https://znanio.ru/media/xvi-xix-asrlarda-ozbek-musiqasinig-madaniyati-musiqiy-nazariy-meros-2680783

Musiqa musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega
Bo'ladi. Bu tabiat manzaralari, ijtimoiy hayotdagi hodisalar va vaziyatlar, insonning ichki m a'naviy olamidir. Musiqa kishining hissiyoti, kayfiyatini ifodalashga qodir. Shu bilan birga uning tabiat manzaralarini tasvirlash, harakat obrazlarini gavdalantirish, hayotning samimiy ovozlariga taqlid qilishga ham layoqati bor.

Biror-bir musiqa asarining mazmunini «o'qiy olish», uni tushunib yetish, hamda qanday tuzilganligini «ko'rish» uchun avvalo musiqa tilini bilish, musiqiy fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. «Musiqa tili» degani bu musiqiy ifodalilik va tasvirlilikning vositalaridan tashkil topgan tizim demakdir. Bular tovush balandligi, cho'zim, metr, ritm, interval, akkord, lad, tonallik, kuy kabi vositalardir.Musiqiy tilning vositalari musiqaning tarkibiy elementlari hisoblanadi. Musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'lim musiqa nazariyasiga oid fanlarda bayon qilingan. San'atshunoslikning bir sohasi musiqashunoslikdir.[3]U o'z navbatida quyidagi bilim sohalarini qamrab oladi: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy etnografiya, musiqiy tanqid, musiqiy akustika, musiqiy psixologiya va boshqa sohalar. Musiqa nazariyasi ilmiy va o'quv fanlarning majmuasi bo'lib, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqiy shakl, polifoniya, solfedjio, cholg'ulashtirish kabi fanlarni o'z ichiga oladi va musiqani nazariy nuqtayi nazardan o'rganadi. Mazkur fanlarning umumiy vazifasi – musiqani idrok etish, uni tushunish, uning tabiati, imkoniyatlari va tinglovchilarga ta'sir qilish mexanizmini anglashga yordam berishdir. Ushbu fanlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ular musiqa sirlarini nafaqat o'z musiqiy ehtiyojlari uchun, balki kerakli bilim va ko'nikmalarini kelajakdagi o'quvchilari ongiga singdirish uchun o'zlashtirishi zarur.

Musiqaning asosiy vositasi, ya'ni ifodalilik vositasi – musiqiy tovushlardir.Lekin zamonaviy musiqada shovqinli tovushlar ham keng qo'llaniladi. Musiqiy tovush, I. Sposobin fikricha, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, musiqiy madaniyatning asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan muayyan tovushlar tizimining bir parchasidir. Umumiy qilib olganda musiqani amaliy hodisa deb olsak uni notaga solinishi va notalarning qog'ozga tushirilishi bilan nazariylashdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'p asrlar mobaynida musiqa asarlarini qog'ozga aniq tushirish uchun qulay ko'rgazmali yozuv tizimini topishga harakat qilingan edi. Musiqiy matnni qog'ozga tushirishda tovushning balandlik va cho'zim xususiyatlarini bitta belgi bilan ifodalash zarur edi.Musiqa haqidagi ta'lim tizimining boshlang'ich qismi — Musiqa elementar nazariyasi – umuman musiqaning asosiy elementlari va ayniqsa, kuy va uning sirlarini o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.Har bir musiqiy tovushning xarakteri to'rtta asosiy xususiyatlar bilan aniqlanadi. Ular balandlik, qattiqlik, tembr va cho'zim.Zamonaviy musiqa tizimi va uning tovushqatori odam qulog'i eshita oladigan 88 ta tovushdan iborat. Bularning hammasini fortepyano yoki royal («cholg'ular qiroli»)da chalib eshitish mumkin.[4]

Notalar tovushlar baland pastligi va uning yangrash ohangiga qarab qanday hosil bo'lishi va uning qay holatda jaranglanishini fizik hodisa deb olish mumkin va shu bilan aytsak bo'ladiki musiqa fa'ni deyarli barcha sohalarni o'z doirasiga qamrab oladi. Shu nuqtai nqazarda qaraganda tovushni

[3]MUSIQA ELEMENTAR NAZARIYASI. GARMONIYA.Ibraximjanova Gavxar Amanbayevna Urmanova Lola Akbarovna Xodjayeva Maxfuza Xalilovna Xalilov Faxriddin Nuriddinovich. O'zbekiston faylasuflarI milliy jamiyati NASHRIYOTI TOShKENT — 2017
[4]Musiqa nazariyasi fanidan maruza matnlari. G'. M. Xudoyev. Toshkent 2017.

hosil qilish uchun vosita sifatida goh torli cholg'ular, goh urma musisiy sozlardan foydalaniladi. Sozlaning chertimi va urma zarbidagi tebranishlar tovushlarni hosil qilib, aylana shaklda turli tomonlarga yoyilar ekan uning inson qulog'iga kelib urilish natijasida tonlar aniqlanadi, aniqlangan ton notaga o'tadi va umumiy musiqaning yaralishi uning shakllanishi har bir jarayonining nazariy jihatdan tahlil qilishga insonda sharoit paydo bo'ladi. Bu bilan demoqchimanki har qanday soha bo'lishidan qatiiy nazar uning jarayonlarini amaliyotdan nazariyaga ko'chirib o'tkazilishi natijasida bilimlar to'planadi vaumriboqiylikka yuzlanadi. Shu boisdan Musiqa nazariyasi fani O'zbek musiqasining amaliy merosini nazariy madaniy bilimlarini bugungi kiungacha yetib kelishiga zamin yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Fitrat "O'zbek klassik musiqa va uning tarixi" T.:"Fan" nashriyoti 1994y-56 b.
2. I.Akbarov "Muzika lug'ati" T.: G'.G'ulom nashriyoti 1978 y.-478 b
3. Jabborov A.H. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" T., "Fan"nashriyoti , 2004
4. Musiqa nazariyasi fanidan maruza matnlari. G'. M. Xudoyev. Toshkent 2017.
5. MUSIQA ELEMENTAR NAZARIYASI. GARMONIYA. Toshkent— 2017